Iqtisodiy xavfsizlik korxonaning ichki va tashqi tahdidlarga qarshi chidamliligini oshirish, barqaror faoliyat yuritishi va bozor o‘zgarishlariga tezkor moslashish qobiliyatini anglatadi. Innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologik yutuqlar bilan birga yangi xavf-xatarlar, xususan, kiberxavfsizlik muammolari, texnologik qaramlik va malakali ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishi kabi omillar paydo bo‘lmoqda.

Mazkur tadqiqotda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali korxonalarni iqtisodiy tahdidlardan himoya qilishning strategik usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada yangi texnologiyalarni samarali joriy etishda duch kelinishi mumkin bo‘lgan risklar va ularni boshqarish mexanizmlari ham tahlil qilinadi. Shu asosda, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning iqtisodiy xavfsizlikka ijobiy va salbiy ta’sirlarini baholash, hamda korxonalarning innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirish yo‘llarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada korxonaning iqtisodiy xavfsizligi innovatsion texnologiyalar asosida qanday ta’minlanishi, bu jarayonda yuzaga keladigan tahdidlar va imkoniyatlar keng ko‘lamda tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Moliyaviy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi. O‘zbekiston va xalqaro ilmiy-adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalardan foydalanib, moliyaviy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan ta’siri haqida nazariy asoslar shakllantirildi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha turli yondashuvlar va konsepsiyalar ko‘rib chiqildi.

A. Abdulhamidning Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari va ularni baholash usullarining tahlili nomli ilmiy maqolasida moliyaviy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati va ularni tadbirkorlik faoliyatida baholash usullarini tahlil qiladi.[1]

E. G. Karimovning Korxonalar moliyaviy tahlilining ahamiyati nomli maqolasida korxonalarning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini baholashda moliyaviy tahlilning ahamiyati haqida so‘z yuritadi, lekin iqtisodiy xavfsizlikni bevosita ko‘rib chiqmaydi.[2]

E.V. Bannikovaning Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda moliyaviy tahlilning o‘rni nomli ishida qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda to‘lov qobiliyati, likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini moliyaviy tahlil qilishning asosiy ko‘rsatkichlari deb aytadi.[3]

Vera Shumilina o‘zining Tadbirkorlik subyektining iqtisodiy xavfsizligi tahlili mavzusidagi tadqiqoti ishida moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish va diagnostika qilish tadbirkorlik subyektining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ajralmas qismi deb hisoblaydi.[4]

L. Liuboxynets ning Sanoat korxonasi iqtisodiyot xavfsizligini ta’minlashning moliyaviy-iqtisodiy shartlari tahlili mavzusidagi ilmiy tadqiqotida sanoat korxonasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni baholash uchun moliyaviy-iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlil qilish obyektiv xulosa qilishning.[5]

V. Zaxarovning “Murakkab iqtisodiy tizimlarning xavfsizligi: ularning raqamli transformatsiyasidagi xatarlarni boshqarish” nomli ilmiy maqolasida raqamli transformatsiya xatarlarini boshqarish va murakkab iqtisodiy tizimlarning raqamli xavfsizligini ta’minlash uchun iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni birlashtirgan yangi xavfsizlik paradigmasi zarurligi muhokama qilinadi. [6]

A. Toxirov va N. Muxammadiyevlarning “Korporativ korxonalarni boshqarishda boshqaruv samaradorlik indikatori (mezon) koʻrsatkichlari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash omili sifatida” ilmiy maqolasida Korporativ korxonalarni boshqarishda boshqaruv samaradorlik indikatori (mezon) koʻrsatkichlari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda samarali koʻrsatkich sifatida qabul qilingan. [7]

A. Toxirov va N. Muxammadiyevlarning “Korxonalarni boshqarishda jarayonlarini samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash” ilmiy maqolasida korxonalarni boshqarishda jarayonlarini samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning metodikasi taklif qilingan. [8]

A. Toxirovning Econometric modeling of economic security in industrial enterprises mavzusidagi tadqiqot ishida: “Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim jihati hisoblanadi. Maqolada korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda ekonometrik modellashtirishning ahamiyati va dolzarbligini ta’kidlab, ilmiy, nazariy va amaliy asoslari, farazlari, qonuniyatlari va rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, sanoat korxonasining iqtisodiy xavfsizligining ekonometrik modeli koʻrib chiqiladi”. [9]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning dastlabki bosqichi sifatida iqtisodiy xavfsizlik va innovatsion texnologiyalarning oʻzaro bogʻliqligi boʻyicha ilmiy adabiyotlar va mavjud tadqiqotlar tahlil qiladi. Ushbu bosqichda raqobatbardoshlik, texnologik rivojlanish, iqtisodiy xavfsizlik va risklarni boshqarish kabi tushunchalar chuqur oʻrganiladi. Nazariy manbalardan foydalanish orqali korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalarning rolini aniqlash uchun ilmiy asos yaratiladi. Tadqiqotda ishbilarmonlik muhitining tahlili, kiberxavfsizlikka oid tahdidlar tahlili, risklarni boshqarish modeli, qiyosiy tahlil kabi amaliy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, innovatsion texnologiyalar korxonalar uchun raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish orqali korxonalar resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va xarajatlarni qisqartirishga erishadilar. Bu esa korxonalarning umumiy samaradorligini oshirib, ularning bozordagi mavqeyini mustahkamlashga yordam beradi. Ammo texnologiyalarning ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, yangi tahdidlar ham paydo boʻladi, xususan, kiberxavfsizlik xavfi va texnologik qaramlik.

1-jadval innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi asosiy - omillarni koʻrsatadi:

**1-jadval.**

| Omillar | Ijobiy ta’sir | Salbiy ta’sir |
|---|---|---|
| Raqobatbardoshlik | Raqobatni oshiradi, yangi bozorga kirish imkonini beradi | Yangi raqobatchilar paydo bo‘lishi |
| Xarajatlarni kamaytirish | Xarajatlarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi | Yangi texnologiyalarga katta mablag‘ talab qilinadi |
| Kiberxavfsizlik | Kiberxavfsizlikni kuchaytirish imkoniyati | Kiberhujumlar xavfini oshirishi mumkin |
| Innovatsion o‘sish | Texnologiyalar yangi mahsulot va xizmatlar yaratishga imkon beradi | Texnologik qaramlik va bilim yetishmasligi |

**1-jadval. Innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillar**

Mazkur tahlillar asosida, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. **Innovatsion texnologiyalarning ijobiy ta’siri** – Korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish raqobatbardoshlikni oshiradi, ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Bu texnologiyalar barqarorlikni mustahkamlash va yangi bozor imkoniyatlaridan foydalanishda muhim rol o‘ynaydi.
2. **Texnologiyaga bog‘liqlik** – Texnologik qaramlikning o‘sishi va kiberxavfsizlik tahdidlari korxonalar iqtisodiy xavfsizligini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Korxonalar kiberxavfsizlik bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishi va malakali ishchi kuchi yetishmasligi muammosini hal qilishi zarur.

**Risklarni boshqarish zarurati** – Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan risklarni minimallashtirish uchun korxonalar xavfsizlik strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishlari lozim. Kiberxavfsizlik strategiyalarini rivojlantirish va texnologik qaramlikni kamaytirish choralari ko‘rilishi kerak.

**2-jadval.**

| Tavakkalchilik turi | Tavakkalchilikni kamaytirish usullari |
|---|---|
| Kiberxavfsizlik tahdidlari | Kiberxavfsizlik tizimlarini kuchaytirish, xodimlar malakasini oshirish |
| Texnologik qaramlik | Diversifikatsiya qilish, alternativ texnologiyalarni qidirish |
| Malakali ishchi kuchi yetishmasligi | Kadrlar tayyorlash dasturlarini joriy qilish |

**2-jadval. Korxonalarning texnologik tavakkalchiliklarini boshqarish strategiyalari**

Korxonalar texnologiyalardan foydalangan holda barqaror rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun xavfsizlik va rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishlari lozim. Bu natijalar kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy strategiyalar uchun muhim asos bo‘ladi.

Risklarni boshqarish modellari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda. Yangi texnologiyalar bilan bir qatorda turli risklar ham paydo bo‘ladi, shuning uchun korxonalar samarali strategiyalar va tizimli yondashuvlarni ishlab chiqishlari zarur.

Risklarni boshqarish modellari tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va boshqarish jarayonlarini tashkil etadi, bu esa korxonaning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq risklarni boshqarish asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

**3-jadval.**

| Bosqichlar | Mazmuni |
|---|---|
| **1. Risklarni aniqlash** | Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishdagi asosiy tahdidlarni aniqlash. Kiberxavfsizlik, texnologik qaramlik, ortiqcha xarajatlar va texnologiyalarning tez eskirishi kabi omillar. |
| **2. Risklarni tahlil qilish** | Aniqlangan tahdidlarning koʻlami va ularning iqtisodiy xavfsizlikka taʼsirini chuqur tahlil qilish. Masalan, kiberxavfsizlikning maʼlumotlar bazasi va moliyaviy operatsiyalarga taʼsiri. |
| **3. Risklarni baholash** | Har bir riskning ogʻirligi va ehtimolini baholash. Ushbu baholash asosida korxonaga eng katta zarar keltirishi mumkin boʻlgan risklar ustuvorlashtiriladi. |
| **4. Risklarni boshqarish usullari** | Risklarni kamaytirish, oldini olish yoki qabul qilish strategiyalarini ishlab chiqish. Masalan, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va texnologik qaramlikni diversifikatsiya qilish. |
| **5. Monitoring va nazorat** | Risklarni boshqarish strategiyalarining samarasini doimiy kuzatib borish va yangi tahdidlarga tezkorlik bilan moslashish. |

**3-jadval. Innovatsion texnologiyalarni qoʻllash bilan bogʻliq risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlar**

Iqtisodiy xavfsizlik korxonaning moliyaviy barqarorligini, bozor oʻzgarishlariga moslashish qobiliyatini va uzoq muddatli rivojlanishni taʼminlashini nazarda tutadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda iqtisodiy xavfsizlikka taʼsir etuvchi omillarni samarali boshqarish uchun quyidagi modellardan foydalanish mumkin:

1. **Kiberxavfsizlik modeli** – Texnologik xavflarni aniqlash va kamaytirishga qaratilgan boʻlib, xavfsizlik protokollari va axborotni shifrlash usullarini doimiy yangilab turadi, bu esa moliyaviy zarar va operatsion xavfsizlikni taʼminlaydi.
2. **Diversifikatsiya modeli** – Korxonalar texnologik qaramlikni kamaytirish uchun turli texnologik yechimlar qidiradilar. Bu model texnologiyalarning tez eskirishi va monopoliyalar taʼsirini pasaytiradi.
3. **Risklarni koʻrib chiqish modeli** – Risklarni baholash va monitoring qilish orqali korxona iqtisodiy tahdidlarga tezkor javob bera oladi va raqobatbardoshligini saqlaydi.

Tadqiqot davomida yangi risklarni boshqarish modellari ustida bir qancha ishlar olib borildi, ularni ishlab chiqish jarayoni muhim va koʻp qirrali strategik yondashuvlarni talab qildi. Iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bogʻliq yangi risklarni samarali boshqarish uchun oʻziga xos va dinamik risklarni boshqarish modelini nazariy jihatdan ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi.

**Model nomi: Dinamik integratsiyalashgan risklarni boshqarish modeli (DIRBM)**

**Modelning maqsadi:** Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda korxonalar duch keladigan risklarni aniqlash, ularga tezkor javob berish va iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash uchun samarali boshqarish strategiyasini ishlab chiqish.

**Modelning mohiyati va mazmuni:** DIRBM moduli xavflarni boshqarishning dinamik jarayoniga asoslangan boʻlib, texnologik taraqqiyot va biznes jarayonlarining murakkabligiga mos ravishda moslashuvchan va real vaqt rejimida monitoringni oʻz ichiga oladi. Modelning asosiy xususiyati shundaki, u risklarni koʻp qirrali va integratsiyalashgan tarzda boshqarish

imkonini beradi. Bu degani, iqtisodiy, texnologik, huquqiy, kiberxavfsizlik va bozor xavf-xatarlari bir-biriga bogʻliq holda tahlil qilinadi.

**Modelning asosiy komponentlari:**

**Risklarni aniqlash va prognoz qilish (RAP) —** Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan texnologik, iqtisodiy va tashqi tahdidlarni oldindan prognoz qilishga asoslangan boʻlim. Bu komponent yangi texnologiyalar va bozor sharoitlarining tahliliga asoslanadi.

**Tezkor javob berish tizimi (TJT)** — TJT korxona duch kelgan xavfga tezkor javob qaytarish uchun moʻljallangan. Har qanday texnologik yoki iqtisodiy oʻzgarish paydo boʻlganda, korxona real vaqt rejimida tezkor choralar koʻradi.

**Risklarni minimallashtirish boʻyicha koʻp darajali yondashuv (RMBKDY)** — Ushbu komponent texnologiyalardan foydalanishda yuzaga keladigan xavf-xatarlarni minimallashtirish uchun koʻp qirrali strategiyalar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu qismda kiberxavfsizlik, texnologik diversifikatsiya va xavflarni diversifikatsiya qilish yoʻllari qoʻllaniladi.

**Integratsiyalashgan monitoring va tahlil tizimi (IMTT)** — Bu tizim risklarni doimiy kuzatib boradi va integratsiyalashgan tahlil asosida choralar koʻradi. IMTT orqali har bir xavf-xatar dinamik kuzatiladi va mavjud xavflar tezda qayta baholanadi.

**Resurslarni optimallashtirish va strategik qarorlar (ROSK)** — Ushbu komponent korxona resurslarini samarali taqsimlash va strategik qarorlar qabul qilishni optimallashtirishga qaratilgan. Model resurslar yetishmasligi bilan bogʻliq risklarni kamaytirishga hamda iqtisodiy samaradorlikni taʼminlashga imkon beradi.

**Koʻrsatkichlar va ularning baholash mezonlari:**

| Komponentlar | Koʻrsatkichlar | Baholash mezonlari |
|---|---|---|
| RAP: Risklarni aniqlash va prognoz qilish | Kutilayotgan xavflar soni | Xavflar oldindan toʻgʻri aniqlangan foiz miqdori |
| TJT: Tezkor javob berish tizimi | Javob berish vaqti, chora koʻrish samaradorligi | Chora koʻrish tezligi va natijaning ijobiy darajasi |
| RMBKDY: Risklarni minimallashtirish | Diversifikatsiya, kiberxavfsizlik tizimi yangilanishi | Diversifikatsiya qilingan texnologiyalar soni |
| IMTT: Monitoring va tahlil tizimi | Monitoring chastotasi va tahlilning dolzarbligi | Risklarning doimiy monitoringi va tahlil dolzarbligi |
| ROSK: Resurslarni optimallashtirish | Resurslar taqsimotining samaradorligi, qarorlar qabul qilish tezligi | Qabul qilingan qarorlar sifati va resurslardan foydalanish samaradorligi |

**4-jadval. Koʻrsatkichlar va ularning baholash mezonlari**

**Modelning amaliy qoʻllanilishi:** DIRBM modeli turli sohalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun mos boʻlib, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishda samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, IT, ishlab chiqarish, transport va logistika kabi sohalarda texnologiyalardan foydalanish bilan bogʻliq kiberxavfsizlik, resurs taqsimoti va yangi texnologiyalarga moslashish jarayonlari ushbu model asosida boshqarilishi mumkin.

DIRBM nafaqat mavjud xavflarni samarali boshqaradi, balki korxonaga kelajakdagi texnologik oʻzgarishlarga moslashish va yangi imkoniyatlardan foydalanishda yordam beradi.

Modelning integratsiyalashgan va dinamik yondashuvi iqtisodiy xavfsizlikni uzoq muddatli mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu model orqali korxonalar raqobatbardoshligini saqlab qolib, innovatsion texnologiyalar bilan bogʻliq risklarni minimallashtirishi va iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashi mumkin. Modelning asosiy tamoyillari – Proaktiv yondashuv, dinamik moslashuv, doimiy monitoring, xavfsizlik protokollari:

Ushbu modelni amaliyotda samarali qoʻllash uchun quyidagi asosiy koʻrsatkichlar:

| Koʻrsatkich nomi | Tavsif | Oʻlchov birligi |
|---|---|---|
| **Xavf darajasi** | Korxona uchun mavjud xavflarning ehtimoli va taʼsir koʻlami | Ehtimollik % va taʼsir miqdori |
| **Javob tezligi** | Xavflarga qarshi qanday tezlikda chora koʻrilishi | Vaqt (soatlarda) |
| **Moslashuv darajasi** | Korxonaning tashqi oʻzgarishlarga moslashish qobiliyati | 1 dan 10 gacha baholash |
| **Monitoring chastotasi** | Xavflarni kuzatib borish chastotasi | Kunlik / soatlik / haftalik |
| **Xavfsizlik muvofiqligi** | Kiberxavfsizlik standartlariga mos kelish darajasi | 1 dan 10 gacha baholash |
| **Kutilmagan xavflar soni** | Kuzatilmagan yoki oldindan aniqlanmagan xavflarning soni | Soni (oylik / yillik) |
| **Xodimlar malakasi** | Xavflarni boshqarishda ishtirok etadigan xodimlarning malaka darajasi | 1 dan 10 gacha baholash |

**5-jadval modelni amaliyotda samarali qoʻllash uchun quyidagi asosiy koʻrsatkichlar**

Dinamik moslashuv va xavf monitoringi modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Xavflarni aniqlash**: Modelning birinchi bosqichi xavf manbalarini tahlil qilish va ularning korxonaga taʼsirini baholashdan iborat. Bu bosqichda ichki va tashqi omillar aniqlanadi, texnologiyalar bilan bogʻliq kiberxavfsizlik, ishlab chiqarish jarayonidagi nosozliklar va boshqa risklar tahlil qilinadi.
2. **Real vaqt monitoringi**: Korxonaning texnologik tizimlari va ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Bu bosqichda xavf yuzaga kelganda tizim avtomatik ravishda ogohlantirishlar berib, tegishli boʻlimlarga xabar yuboradi. Monitoring chastotasi yuqori boʻlib, xavfli vaziyatlar kechikmasdan aniqlanadi.
3. **Xavflarni boshqarish strategiyasi**: Aniqlangan xavfning turiga qarab, boshqarish strategiyasi ishlab chiqiladi. Masalan, kiberxavfsizlik tahdidlari aniqlansa, maʼlumotlarni shifrlash tizimlari kuchaytiriladi yoki xavfsizlik devori (firewall) texnologiyasi yangilanadi. Bu strategiyalar korxonaning moslashuvchanligini oshiradi.
4. **Chora koʻrish va moslashuv**: Korxona xavfni aniqlaganidan soʻng, unga qarshi tezkor choralar koʻriladi. Ushbu bosqichda korxona kiberxavfsizlik xavfiga qarshi tezkor ravishda xavfsizlik tizimlarini kuchaytirishi yoki texnologik qaramlikni kamaytirish uchun diversifikatsiya strategiyasini qoʻllashi mumkin.
5. **Tahlil va xulosalar**: Risklarni boshqarish strategiyasining samaradorligi tahlil qilinadi. Agar mavjud strategiyalar yetarlicha samarali boʻlmasa, ular qayta koʻrib chiqiladi va yangi yondashuvlar ishlab chiqiladi.

**Dinamik moslashuv va xavf monitoringi modelining afzalliklari**

- **Tezkor qaror qabul qilish**: Model korxonaga xavflarga qarshi tez va samarali choralar koʻrish imkonini beradi.
- **Real vaqt monitoringi**: Xavflarni doimiy kuzatib borish imkoniyatini taʼminlaydi, bu esa kutilmagan tahdidlarga tezkor javob qaytarishni osonlashtiradi.
- **Moslashuvchanlik**: Korxona oʻz faoliyatini tashqi va ichki oʻzgarishlarga mos ravishda optimallashtira oladi.
- **Xavfsizlikni kuchaytirish**: Kiberxavfsizlik va boshqa texnologik xavflar qatʼiy nazoratda boʻladi va tizimli boshqariladi.

**Xulosa**. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, innovatsion texnologiyalar korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashda strategik vosita hisoblanadi. Ular resurslardan samarali foydalanishni taʼminlash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali umumiy samaradorlikni oshiradi.

Biroq, texnologik taraqqiyot bilan kiberxavfsizlik tahdidlari va texnologik qaramlik kabi salbiy taʼsirlar ham oshadi. Bu korxonalarni texnologiyalarni joriy qilish bilan bogʻliq risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishga majbur qiladi. Risklarni minimallashtirish va barqaror rivojlanishni taʼminlash uchun tizimli yondashuvlarni qoʻllash zarur, ayniqsa, texnologik qaramlikni kamaytirish va kiberxavfsizlikni taʼminlash masalalari dolzarb boʻlib qolmoqda.

**Takliflar:**

1. **Integratsiyalashgan kiberxavfsizlik strategiyalari** – Texnologiyalar rivojlanishi bilan xavfsizlik devorlari, maʼlumotlarni shifrlash va antivirus tizimlarini birlashtirgan strategiyalar ishlab chiqilib, muntazam yangilanishi zarur. Xodimlar ham kiberhujum xavfi haqida xabardor qilinishi va malakasi oshirilishi kerak.
2. **Texnologik qaramlikni kamaytirish uchun diversifikatsiya** – Turli texnologiyalardan foydalanib, texnologik qaramlik va monopoliyaga tushib qolish xavfini kamaytirish, texnologiyalarning tez eskirishiga qarshi chora.
3. **Kadrlarni tayyorlash va qayta oʻqitish** – Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda malakali ishchi kuchi zarur. Xodimlarni texnologik oʻzgarishlarga moslashtirish va ularni boshqarishga yoʻnaltirilgan dasturlar ishlab chiqilishi kerak.
4. **Risklarni baholash va monitoring tizimlari** – Risklarni oldindan baholash va real vaqt monitoringi orqali kiberxavfsizlik va eskirish xavflarini minimallashtirishga yordam beradigan tizimlarni joriy qilish tavsiya etiladi.
5. **Innovatsion jarayonlarni avtomatlashtirish** – Avtomatlashtirilgan tizimlar operatsion jarayonlarni soddalashtiradi, samaradorlikni oshiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi.
6. **Moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish** – Tezkor texnologik oʻzgarishlarga moslashish uchun strategiyalar ishlab chiqilib, yangiliklarni kuzatib borish va joriy qilish samaradorligi oshiriladi.
7. **Barqaror rivojlanish strategiyasi** – Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda qisqa muddatli yutuqlardan tashqari, uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan strategik yondashuvlar takomillashtirilishi lozim.

Bu xulosalar va takliflar korxonalar uchun innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilishda muhim strategik yoʻnalishlar boʻlib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Akbarov, A., & Ermatov, M. (2024). Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik koʻrsatkichlari va ularni baholash usullarining tahlili. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(5), 19–25. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss5-pp19-25
2. Karimov , E. G. (2023). Korxonalar moliyaviy tahlilining ahamiyati. yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(10), 714–715. https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a136
3. Е. В. Банникова е. В. Провалова в. Е. Провалов Роль финансового анализа в обеспечении экономической безопасности предприятий агропромышленного комплекса. "Омский научный вестник. серия «общество. история. современность" ТОМ 7 № 1. DOI: 10.25206/2542-0488-2022-7-1-104-111
4. Шумилина Вера Евгеньевна, Полуян В. И. Анализ экономической безопасности хозяйствующего субъекта. AUS PUBLISHERS. doi.org/10.26526/chapter_60258635899182.47583459
5. Liubokhynets, Larysa, Katkova, Tetyana, Kravchyk, Yurii. (2022). Analysis of financial and economic prerequisites for ensuring economic security of industrial enterprise. Herald of Khmelnytskyi National University. Economic sciences. 304. 167-173. 10.31891/2307-5740-2022-304-2(1)-23.
6. Zakharov, Vladimir & LUDUSHKINA, Elena & KORNILOVA, Elena & KISLINSKAYA, Marina. (2021). Security of complex economic systems: Risk management of their digital transformation. Economic Analysis: Theory and Practice. 20. 592-623. 10.24891/ea.20.4.592.
7. Toxirov, A., & Muxammadiyev, N. (2022). Korporativ korxonalarni boshqarishda boshqaruv samaradorlik indikatori (mezon) koʻrsatkichlari iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash omili sifatida. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 2(7), 94–96. izvlecheno ot https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1983
8. Toxirov, A., & Muxammadiyev, N. (2022). Korxonalarni boshqarishda jarayonlarini samaradorligini oshirish orqaliy iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 489–496. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/82
9. Tokhirov, A. (2024). ECONOMETRIC MODELING OF ECONOMIC SECURITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES . Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(3). https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I3Y2024N08

// SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefonlar:**

(99) 602-09-84 (telegram).